

O'QISH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH USULARI

Alijonova Mohlaroyim

Student, Andijan State Institute of Foreign Language

Zaynobiddinova Gulbahor Bahtiyorovna

Ilmiy rahbar: Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası O'qituvchisi

Elektron pochta: gulizaynobiddinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400515>

Annotatsiya: O'qish qobiliyati nafaqat bilim olish, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun ham asos hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda ma'lumotlar ko'pligi tufayli samarali o'qish qobiliyatiga ega bo'lish har bir inson uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada o'qish qobilaytlarini oshirishning eng samarali usullari haqida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: O'qish, Ko'nikma, So'z, Samara, Rivojlantirish, Tezlik, O'rgaish, Tushunish, Qobilyat.

O'qish ko'nikmasini rivojlantirishning eng muhim qismi o'qishdan zavq olishdir. Sizni qiziqtiradigan mavzularda maqolalar, kitoblar, blog postlar yoki yangiliklarni o'qish o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi va o'qishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Tez va samarali o'qish orqali ko'proq ma'lumotni qisqa vaqtda o'rganishingiz mumkin. O'qish tezligini oshirish uchun doimiy mashq qilish va har safar biroz tezroq o'qishga harakat qilish kerak. O'qish paytida so'zlarni birma-bir o'qishdan ko'ra, jummalarni umumiy ma'nosini tushunishga harakat qilinishi kerak. O'qish davomida har safar vaqtni o'lchab, tezlikni oshirishga intilish kerak. O'qigan matningizni tushunish uchun har bir so'zni tarjima qilishga harakat qilmaslik kerak. Avval jumlar yoki matnning umumiy mazmunini tushunishga harakat qilinish kerak. Noma'lum so'zlarni topib, ularning ma'nosini kontekst orqali aniqlang. Boshida o'qigan matningizni so'zma-so'z tarjima qilmang, avval umumiy mazmunini tushuning. Faqat tushunmagan so'zlarni belgilang va ularni keyinchalik izlab toping. O'qiyotganingizda yangi so'zlar va iboralarni o'rganish muhimdir. Bu nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki o'qish paytida tushunishni ham yaxshilaydi. O'qiyotgan paytingizda yangi so'zlarni belgilang va ularning tarjimasini yoki ma'nosini yozib boring. Har kuni yangi o'rgangan so'zlaringizni yozib boring. Ushbu so'zlarni gaplarda ishlatib, ularni amalda qo'llashga harakat qilinishi kerak. O'qigan narsalaringizni eslab qolish va ularni qayta tiklash ko'nikmasini rivojlantirish o'qish samaradorligini oshiradi. Matndan asosiy ma'lumotlarni eslab qolishga e'tibor qarating va ularni mustahkamlash uchun qayta o'qish kerak bo'lsa, ikki-uch marta qaytaring. Talabalar ingliz tilini muloqot vositasi



sifatida o'rganadilar va undan og'zaki va yozma shakllarda foydalana olishlari kerak. Ingliz tilining shaxslararo va xalqaro muloqot vositasiga aylanishi uchun muloqotning barcha shakllarini va barcha nutq funktsiyalarini egallash juda muhimdir. Talabalar nutq faoliyatining to'rt turini o'zlashtirishlari kerak: o'qish, tinglash, yozish va gapirish, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan tilning uchta jihati - lug'at, fonetika va grammatikaning afzalliklari haqida unutmasligi kerak.

Dastlabki bosqichda o'qishga o'rgatishda o'quvchini to'g'ri o'qishga, ya'ni ovozli grafemalarga, fikrni ajratib olishga, ya'ni matn ma'lumotlarini tushunishga, baholashga, undan foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar bolaning qanchalik tez o'qishiga bog'liq. O'qish texnikasi orqali biz nafaqat tovush va harfning tez va aniq o'zaro bog'liqligini, balki tovush-harf aloqasining bola o'qiyotgan narsaning semantik ma'nosi bilan bog'liqligini ham tushunamiz. Aynan o'qish texnikasini o'zlashtirishning yuqori darajasi o'qish jarayonining o'zi natijasiga - tez va sifatli ma'lumot olish imkonini beradi.

Yozish o'qish bilan juda chambarchas bog'liq. ularning tizimida bitta grafik til tizimi mavjud. Grafik belgilar yordamida yozishda fikr kodlanadi, o'qish paytida grafik belgilar dekodlanadi. Agar siz yozish va yozishni o'rgatish maqsadlarini to'g'ri belgilab, yozuvning boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishdagi rolini hisobga olgan holda, mashqning to'liq mos maqsadlaridan foydalansangiz, ularni o'rganishning ma'lum bir bosqichida bajarsangiz, og'zaki nutq asta-sekin boyitiladi va mantiqiyroq bo'ladi.

Yozish boshlang'ich nusxa ko'chirish uchun yozish topshiriqlari yoki ijodkorlikni talab qiladigan vazifalar berilganda grammatik mahoratni rivojlantirishga yordam beradi va bularning barchasi yodlash uchun ma'lum shartlarni tashkil qiladi. Yozma ishsiz talabalarning leksik va grammatik materialni yodlab olishlari juda qiyin.

References:

- 1.David Bohlke, Dorothy E.Zemach (2013) Skillful 1. Reading and writing. Macmillan. (1)
- 2.Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E.Zemach (2012) Skillful 2 va 3. Reading and writing. Macmillan. (2)
- 3.Skillful 4. Reading and writing. Macmillan. (3)
- 4.Scarry, S., & Scarry, J. The Writer's Workplace with Readings: Building College
5. Writing Skills. Thomson Learning. Sixth Edition. 2010.
- 5.file:///C:/Users/Lenovo/Downloads/Xolbo'tayeva+Dildora%20(1).pdf
- 6.<https://mrenglish.uz/reading-oqish-konikmasini-rivojlantirish-usullari>
- 7.file:///C:/Users/Lenovo/Downloads/Yosh+olimlar+1031.pdf
- 8.<https://www.youtube.com/watch?v=8-vr1V5Sn3I>

